

Hurmatli talabalar!

Samarqand davlat chet tillar institutida 2025/2026-o'quv yilida 2-bosqich talabalari uchun e'lon qilingan grant o'rinlari tanloviga ariza berish boshlandi!

Samarqand davlat chet tillar institutida ta'lim grantini qayta taqsimlash

SXEMASI

Bosqichlar	Subyekt	Chora-tadbirlar	Muddat
1-bosqich	Talabgor (talaba)	Institut rasmiy veb-saytida ro'yxatdan o'tadi.	Har yili 15-iyulga qadar
2-bosqich	Akademik o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash bo'yicha komissiya, Ijtimoiy faollikni aniqlash bo'yicha komissiya	1. Talabgorning o'zlashtirish ko'rsatkichini baholaydi. 2. Talabgorning ijtimoiy faollik ko'rsatkichini baholaydi.	Har yili 25-iyulga qadar
3-bosqich	Akademik o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash bo'yicha komissiya, Ijtimoiy faollikni aniqlash bo'yicha komissiya	Talabgorni baholash natijalarini Maxsus komissiyaga taqdim etadi.	Har yili 1-avgustga qadar
4-bosqich	Maxsus komissiya	Talabgorning umumiy natijasini shakllantirib, institut kengashiga kiritadi.	Har yili 15-avgustga qadar
5-bosqich	Institut Kengashi	Ta'lim grantini oluvchi talabalar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risidagi qarorni qabul qiladi.	Har yili 20-avgustga qadar
6-bosqich	Institut	Ta'lim grantini oluvchi talabalar ro'yxatini institutning rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.	Har yili 25-avgustga qadar

Tabaqalashtirilgan va belgilangan toifa grant o'rinlariga ariza berish bo'yicha yo'riqnom

2025/2026-o'quv yilida 2-kurs bo'ladigan talabalar e'lon qilingan grant o'rinlariga tanlovda ishtirok etish uchun main.samdchti.uz sayti orqali quyidagi tartibda ariza berishlari mumkin:

- 1). Bosh sahifadagi "Talabalar uchun" bo'limida joylashgan "Kirish" tugmasi bosiladi;
- 2). Ochilgan sahifada "HEMIS Student orqali kirish" tugmasi tanlanadi;
- 3). Keyingi sahifada talaba HEMIS tizimidagi login va parol orqali platformaga kiradi;
- 4). Platformadagi menyular qatoridan "Grant uchun ariza" bo'limi tanlanadi.
- 5). Talab etilgan ma'lumotlar to'liq va aniq tarzda to'ldiriladi;
- 6). Tabaqalashtirilgan grant o'rni uchun talabning ariza berish vaqtida GPA ko'rsatkichi 3.5 va undan yuqori bo'lishi talab etiladi.